

RANGTASVIRDA TEZLAVHALAR ISHLASH AMALIY MASHĞULOTLARIDA ENTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YÖLLARI

Mohira Haydarova

Qarshi davlat universitetining pedagogika instituti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ma`lumki, rangtasvirni o`qitishning nazariy kursiga talabaga rangtasvir janrlarining xilma-xilligi, zamonaviy san'at turlari va oqimlari, rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida hajmli buyumlaming fazoviy joy lashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni. qo'yilm ani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish. ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish talabi qo`yiladi. Maqolada ham rangtasvirda tezlavha ishlash malakasini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati xususida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Rangtasvir, pedagogika, talaba-yoshlar, o`qitish, texnologiyalar, tasavvur g`oya, iste`dod.

THE PRACTICAL IMPORTANCE AND EFFECTIVENESS OF THE OPEN LESSON METHOD IN IMPROVING THE ACTIVITY OF STUDENT ACTIVITIES IN PAINTING

ABSTARCT

It is known that the theoretical course of painting teaches students the diversity of genres of painting, modern art forms and trends, the main role of painting in painting, air perspective, spatial arrangement of three-dimensional objects on paper, the rules of drawing, shadows, law of light. be able to describe the exact methodical sequence. the work is required to be integrated in color and color. The article also discusses the practical importance of the use of pedagogical technologies in improving the skills of rapid work in painting.

Keywords: Painting, pedagogy, students, teaching, technology, imagination, talent.

KIRISH

Ma`lumotlarga qaraganda natyurmort (frans. nature morte — jonsiz tabiat) — tasviriy san`at janri. Insonning atrofini o`rab turgan real maishiy muxitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi; shuningdek, shu janrda yaratilgan rassomlik asari ham deb ataladi. Asosan, dastgoxli rassomlik (rangtasvir va grafika)la, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)sa ishlanadi. Unda "jonsiz buyumlar" (Mas, uy-ro`zg`or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to`ldirish uchun ba`zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmotda namoyon bo`ladi. Shundan bu san`at asarida tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to`ldiradigan) buyumlar o`z egasining fe'l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko`rsatishga qaratilgan.

Quyida ham talaba yoshlarning rangtasvirda tezlavha ishlash malakasini oshirishda ochiq darsning amaliy ahamiyati va samaradorligini ko`rib chiqamiz.

Darvoqe, mashg`ulot uchun talab qilinayotgan vaqt; 80 daqiqa ajratiladi. Mavzuni bayoni berilgach rangtasvirda tezlavhalar ishlash xususida ma`lumot keltiriladi. kirishda ham tezlavha (etyud) haqida umumiyligi ma`lumot beriladi. Darsning asosiy qismida:



- a) Natyurmort chizish uchun etyudlar ishlash.
- b) natyurmortda tezlavhalarning o`rni.
- c) natyurmortdagi soya -yorug`liklarni ranglavhalar orqali ko`rsatish kabilalar o`rgatiladi. Rangtasvirda tezlavha ya`ni ranglavha yanada aniqroq qilib aytganda etyud ishlash

judha muhim amaliy ishlardan biri bo'lib ,bu ish harqanday kompozitsion asar yaratishda yoki biror janrda rasm ishslash uchun datslabki bosqich vazifasini o'taydi. Avvalo tezlavha yoki etyud nima ekanligini aniqlaymiz.Tezlavha qlamtasvirda ham mavjudligini hisobga olib ,rangtasvirda ko'proq ranglavhalar deb e'tirof etiladi. Rassomlar tilida bu etyud deb yuritiladi.

Xo'sh etyud nima? Etyud-Fransuzcha so'z bo'lib, lavha ,yoki tabiiy lahzalik ko'rinish degan manoni anglatadi.bunda tasvirlangan buyum tezda rangtasvir qoidalariga amal qilgan holda ,xarakter jihatdan aniqlab ko'rsatiladi. Shuningdek etyud iborasi san'atning boshqa turlarida ham uchraydi. Rangtasvir etyudi esa o'zining qiziqarli, ranglardagi nafisligi bilan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bazida etyudlar kompozitsion ishlardan ham go'zalroq va muvaffaqiyatliroq chiqishi mumkin. Bu o'rinda etyudga lahzalik tabiiy ko'rinish deb ta'rif bersak o'rinli bo'ladi.

MULOHAZA VA TAKLIFLAR

Xo'sh tezlavha ishslash uchun dastlabki vazifa nima ekanligini bilib olsak; dastlab biz rasm chizish uchun qulay o'rnashamiz hamda qo'yilmani kuzatamiz. Kuzatish

jarayonida esa naturani tahlil qilamiz. Natura-bu Fransuzcha so'z bo'lib, tabiat ma'nosini beradi.Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tabiatdagi barcga narsalarni asliga qarab chizish mumkin ekan.Ammo darsimiz uy- ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni davomi ya'ni tezlavhalar yoki ranglavhalar chizish.Shunday ekan bizga natura sifatida yordamga kelayotgan buyumlar royxati bilan tanishamiz.

Buni "Ha"-“Yo'q” o'yini orqali amalga oshiramiz; Guruhni 3 ta kichik guruhga bo'lamiz va bitta ekspert belgilaymiz.

1-chi guruh uchun savollar;

-osmon,shar, olma,mato,yer,ko'za,choynak,payola,qor,lagan.

2-guruh uchun savollqar;

Qozon, vaza,pichoq, shaftoli,shamol,lagan,payola,qum,kosa,qoshiq.

3 -guruh; Guldon, kastryul, chumich, atlas, samovar, tuproq, sement, tarvuz, oftoba, choynak.....

Bu kabi savollarni davo ettirish mumkin.ha yoki yo'q jaavobiga adashmagan guruhga rag'bat kartochkkalari beriladi.

Endi natura rang jihatdan yaxshilab kuzatiladi hamda talabalar birgalikda tahlil qilinadi.

Bunda quyidagi savol javobdan foydalanish mumkin; Naturaning rang koloriti qanday?

- Natyurmortdagagi asosiy buyumning o'rni?
- Natyurmortdagagi yorug'liklar orni?
- Natyurmortdagagi soyalar qanday?
- Natyurtmotdagagi reflekslarni ko'rsating?
- Natyurmortdagagi perspektiv qisqrishlar.
- Natyurmortdagagi tekisliklar o'rni.
- Qaysi tekislik yorug', nimaga?
- Natyurmort orqa plani qanday tasvirlanadi?

Savollarga javob berilgach foal ishtirok etganlar rag'batlantirib boriladi.

Keying bosqichda qo'yilma o'qituvchi tomonidan namuna sifatida ishlab ko'rsatiladi. Rangtasvirda ishlangan etyudlar namuna tariqasida namoyish etiladi hamdatahlil etiladi. Mavzu hamda amaliy ish talabalarga tushunarli bo'lgach, amaliy ishga o'tishga ruxsat beriladi.

MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Rangtasvirda tezlavhalar ishlash	
Vaqti –2 soat	talbalar soni nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy
<i>Mashg'ulotining rejasi</i>	
	<ul style="list-style-type: none"> <i>-Rangtasvirda tezlavha(etyud) haqida ma'lumot</i> <i>-Naturani tahlil qilish</i> <i>-Tezlavhada buyumlar xarakterini belgilash</i> <i>-Kompozitsion faoliyatda ranglavlalardan foydalanishning ahamiyati</i>.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi Talabalar rangtasvirda etyud ishlash qoidalari bilan tanishadilar. Ranglavhalarni ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
Rangtasvirda tezlavhalar ishslash bo'yicha bilim berish.Talabalarmi kompozitsion faoliyat oldidan etyudlar ishlash malakalarini hosil qilish. Rangtasvirda yorug'-soya qonuniyatlarini to'g'ri anglay olish qobiliyatlarini rivojlanтирish.	Rangtasvirda etyud ishlash qonun qoidalari bilan tanishadilar. Naturani rang jihatidan tahlil qiladilar. Ranglavhalar bajaradilar. Ranglavhaldarda rang gammasi ,yo'rug'-soya qonuniyatlariga e'tibor berib tez ishlashga o'rganadilar.


O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy ish.master klass texnikasi,individual ishslash,kichik guruhlarda ishslash
O'qitish vositalari	Uslubiy majmua, natyurmort uchun turli uy -ro'zg'or buyumlari,rasmlli ilovalar,ish qurollari.
O'qitish shakli	Guruh bo'lib ishslash
O'qitish shart-sharoitlari	Moslashirilgan o'quv xonalari,natura uchun taglik ,sun'iy yorug'lik manbai,moslamalar.
Monitoring va baholash	Amaliy ish natijalai, tahlil va savol- -javob

AMALIY MASHG'ULOTNING TEKNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	1Rangtasvirda tezlavhalar ishslash haqida malumotlar berish. Muammoli savol berish bilan mavzuni aniqlashtirish. Etyud- nima, natura nima kabi savollarni aniqlashtiradi	Darsga hozirlik ko'radilar.chizish uchun qulay vaziyatda bo'ladilar.Savollar ustida ishlaydilar Mustaqil fikir yuritadilar..muammoga birgalashib yechim topadilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2Kichik guruhlarga bo'lish ular bilan ishslash savollar berish. Namuna tariqasida chizib ko'rsatish. Amaliy topshiriq haqida ma'lumot berish	Quyilmaga qarab ranglavhani qisqa muddatga bajarish chora tadbirlari ustida ishlaydilar. Natyurmort etyudini bajaradilar.
	3.Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishslash uchun ro'yhat beradi. Bajarilgan ishlar bo'yicha tahlil o'tkazadilar	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadilar.amaliy ish tahlili bo'yicha rag'batlantiriladilar.
3-bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi Uy-ro'zgor buyumlaridan ranglavhalar ishslash.	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar .



1,2,3,4-rasm



XULOSA

Xulosada, mashg`ulotlarda talabalarga tezlavha (etyud) haqida ma'lumot berishni ta`kidlash lozim. Shuningdek, natyurmort chizish jarayonida tezlavhalardan unumli foydalanish yo'llari bilan tanishishtiriladi. Amaliy ish faolyatda akvarel bo'yqlaridan samarali foydalanishga o'rgatiladi. Ochiq darsdan talabalar quyidagi natijalar kutiladi:

- natyurmort chizish jarayonida etyud ishslash qobiliyati oshadi;

➤ qobiliyatiga ega bo'ladilar.
 ➤ tezlavha ishlay olish malakalarini oshiradilar.
 ➤ natyurmort uchun qo'yilgan buyumlarni rangda ifodalash kabi malakalarini oshirib boradilar.

➤ -suvbo'yoqda ishslash ko'nikmalarini rivojlantirib boradi;
 ➤ Natyurtdagi yorug'-soya reflekslarni tezlavha orqali ifoda etishni takomillashtirib boradi;
 ➤ talabalar amaliy ish jarayonida esa ularga individual yordam berib boriladi.

Tezlavhalar 15 daqiqadan 60 daqiqa gacha davom etishini hisoba olgan holda, to'g'ri

bajarilgan ilk vazifa namoyish etilib rag'batlantiriladi. Amaliy so'ngida barcha ishlar namoyish etiladi talabalar bilan birgalikda tahlil qilinib baholanadi. Ekspert tomonidan berib borilgan rag'bat kartochkalar hisobga olgan holda talabalar bilimi izohlanadi. Uy-ro'zg'or buyumlari hamda meva sabzavotlardan tashkil topgan natyurmort rahglavhalarini bajarish vazifasi yuklatiladi.

Talabalarga tezlavha (etyud) haqida ma'lumot beriladi. Natyurmort chizish jarayonida tezlavhalardan unumli foydalanish yo'llari bilan tanishtiriladi. Amaliy ish faolyatda akvarel bo'yoqlaridan samarali foydalanishga o'rgatiladi.

REFERENCES

1. Abdurahmonov G'.M. Rangtasvir va kompozitsiya. Toshkent, 1995
2. Abdirasilov S. Tolipov N. "Rangtasvir" Toshkent, 2005
3. Nabiev M. «Rangshunoslik». Toshkent; O'qituvchi, 1995
4. Beda G.V. «Osnovi izobrazitelnoy gramoti». Prosveshchenie
5. B.V. Iagonson. Shkola izobrazitelnogo iskusstva – M. 1998.
6. www. tdpu.uz
7. www. pedagog.uz
8. www. Ziyonet.uz